



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
A'zamova Shahzoda

Annotatsiya : Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirish uchun yuksak malakali kadrlarni tayyorlash boshlang'ich sinflardan boshlanishi; jahon reytingidagi baholash dasturlaridan foydalanib ta'lim sifatini oshirish; pedagoglarda xalqaro baholash dasturlari to'g'risida ko'nikmalarni shakllantirish va amalda tatbiq etilishini ta'minlash; matematika barcha fanlar asosi ekanligini tushungan holda o'quvchilarga to'laqonli yetkazib berish va jahon talablariga javob mos va xos kadrlarni yetishtirish ; zamonaviy texnologiyalar asrida o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishda o'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olgan holda har biri bilan shug'illanish; o'quvchilarda fanga , kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish; I.A.Gersen aytganidek “Qiyin fan yo'q , balki qiyin tushuntirish bor xolos” jumllariga amal qilgan holda biz pedagoglar kamchiliklarni farzandlarimizdan izlamay, eng avvalo o'zimizni isloh qilishimiz, ularga o'rgatayotgan ma'lumotlarimizni hayot bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglata olishimiz va hu o'rinda aytish zarurki, boshlang'ich sinflarda fanlarni past yoxud sekin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq shug'illanib, ularni kelajaklari uchun zamin yaratishimiz to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Matematika darslari, xalqaro baholash dasturlari, milliy dastur , zamonaviy metodlar, ko'nikma va malakalarning dars jarayonidagi ahamiyati, boshlang'ich sinflar, jamoalar, amaliyotda qo'llash, pedagogning bilim darajasi uyg'unligi, yetuk kadrlar, jahon miqyoidagi ta'lim talablari, innovatsion ta'lim muhiti , PISA , PIRLS , TALIS , TIMSS , EGMA ,EGRA kabi ta'lim dasturlarining talablari, xalqaro ta'lim standartlariga mos baholash dasturi ishlab chiqish

Kirish : Yurt kelajak avlod ta'lim -tarbiya darajasi davlatning kelgusi ishlarining darajasiga tengdir. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi zamon talabi yoshlarni har tomonlama bilimli , malakali , tarbiyali , o'z ustida ishlaydigan yoshlarni yetishtirishdir. Bu jarayonlardagi asosiy bo'g'in pedagoglar bo'lib , bunda pedagoglarning asosiy vazifasi yosh qobiliyat egalarini shakllantirib, ularni kasbga to'g'ri yo'naltirish , o'ziga ishonadigan avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Asosiy qism : Yaqin yillardan buyon ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonlarda milliy ta'lim tizimiga rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini olib kirishdi. Ushbu harakatlar ko'pgina sohalarda o'z natijasini ko'rsatdi. Maktab ta'limida ko'plar islohotlar qilinib, xalqaro baholash dasturlaridan samarali foydalanilyapti. Boshlang'ich sinflarda baholashning PISA , PIRLS , TALIS , TIMSS , EGMA ,EGRA kabi xalqaro dasturi yaqqol namunadir. Xalqaro baholash dasturlari haqida ma'lumotlar:

PISA –Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: Programme for International Student Assessment) — turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o‘tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan.

PIRLS –(inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Tadqiqot davriy ravishda – har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o‘tkazilgan. PIRLS o‘qish ta‘limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

1. global miqyosida ta‘lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;
2. yangi yoki qayta ko‘rib chiqilgan ta‘lim siyosatining ta‘sirini kuzatib borish;
3. ta‘limning zaif nuqtalarini belgilash va o‘quv islohotini amalga oshirish;
4. PIRLS ma‘lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o‘qitish va o‘qishni takomillashtirish;
5. adolatlilikni kuzatish yoki qo‘shimcha sinflarda o‘quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
6. o‘qishni va o‘qitishni o‘rganish.

TIMSS – Matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi TIMSS[1] (ing. TIMSS -Trends in International mathematics and science study) - 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, tadqiqot ta‘lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta‘lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta‘lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta‘lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi. TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

TALIS -Teaching and Learning International Survey) o‘qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta‘lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro

tadqiqot bo‘lib, har 6 yilda o‘tkaziladi. So‘nggi marta 2018-yilda o‘tkazilgan TALIS xalqaro baholash tadqiqotlarida 48 ta davlat qatnashgan bo‘lib, natijalari 2020-yilda iyun oyida e‘lon qilingan edi. Uning maqsadi — ishtirokchi mamlakatlarga samarali o‘qitish va o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta‘lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma‘lumotlar taqdim etishdan iborat. Tadqiqotlar maktab o‘qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o‘z fikrini bildirish imkonini beradi.

Matematik savodxonlikni rivojlantirishda yuqoridagi dasturlardan foydalanib, o‘quvchilarning ta‘lim va tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi, matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishini tekshiradi.

Xulosa va takliflar : Matematika barcha fanlar bilan uzviy bog‘liq. Matematikani to‘liq o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga deyarli duch kelmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematika fanini qiyin deb biladi, ammo bu fan boshqa fanlarga nisbatan oson fan ekanligini tushuntirish zarur. Matematika darslarini tashkil etishda qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish, har bir dars uchun yorqin va foydalanish qulay bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar, dam olish daqiqalari uchun o‘yinlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Isaboyeva D. Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash (Matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassisleri uchun metodik qo‘llanma). Ta‘lim inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. - Toshkent, 2019-yil.
4. PISA 2015 Results Excellence and Equity in education. Volume I. P. 28
5. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma O‘qituvchi" Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2020. B.8.